

KASBIY STANDART
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Tabiat muhofazasi bo'yicha inspektor", "Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor", "Ekolog", "Ekolog-muhandis", "Katta ekolog", "Bosh ekolog" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Atrof muhitning barqarorligini ta'minlash, inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, shu bilan birga zamonaviy texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan foydalangan holda, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va jamoatchilikning ekologik ongini yuksaltirish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	E seksiyasi Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 39 Ifloslanishni yo'q qilish bo'yicha faoliyat va boshqa chiqindilarni yo'q qilish xizmatlari faoliyati 39.0, 39.00 Ifloslanishni yo'q qilish bo'yicha faoliyat va boshqa chiqindilarni yo'q qilish xizmatlari faoliyati N Professional, ilmiy va texnik faoliyat 74 Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati 74.9, 74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Atrof muhitni saqlash, inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan professional faoliyat turi. Mazkur kasbiy standart soha mutaxassislarning atrof-muhit sifatini yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha malaka talablarini belgilaydi	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32570 Tabiat muhofazasi bo'yicha inspektor	5
		21331003 Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor	6
		21332003 Ekolog	6
		21332005 Ekolog-muhandis	6
		21332 Katta ekolog	6
		12190005 Bosh ekolog	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	32570 Tabiat muhofazasi bo'yicha inspektor	A1.5	Tabiat resurslarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish	A1.01.5	Tabiat resurslaridan foydalanish qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish
				A1.02.5	Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish
		A2.5	Atrof-muhit ifloslanishi oldini olish choralari ishlab chiqish	A2.01.5	Ekologik xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
				A2.02.5	Ekologik qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralari muvofiqlashtirish
2	21331003 Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor	B1.6	Ekologik nazorat to'g'risidagi qonunchilikga rioya etilishini ta'minlash	B1.01.6	Atrof-muhit muhofazasi talablariga rioya etilishini tekshirish
				B1.02.6	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish
		B2.6	Ekologik monitoring va tahlil o'tkazish	B2.01.6	Atrof-muhit holatini monitoring qilish
				B2.02.6	Ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish va prognozlashtirish
3	21332003 Ekolog	D1.6	Ekologik loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish	D1.01.6	Ekologik loyihalarni rejalashtirish
				D1.02.6	Ekologik dasturlarni joriy etish va nazorat qilish
		D2.6	Ekologik tadqiqotlar va tahlillar o'tkazish	D2.01.6	Atrof-muhit holatini ilmiy tahlil qilish
				D2.02.6	Ekologik tendentsiyalarni prognoz qilish
4	21332005 Ekolog-muhandis	E1.6	Ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish	E1.01.6	Ekologik toza texnologiyalarni loyihalashtirish
				E1.02.6	Ekologik texnologiyalarni joriy etish va nazorat qilish
		E2.6	Ekologik muhandislik loyihalarini boshqarish	E2.01.6	Ekologik loyihalarni loyihalashtirish va muvofiqlashtirish
				E2.02.6	Ekologik loyihalarni baholash va optimallashtirish
5	21332 Katta ekolog	F1.6	Ekologik strategiyalarni ishlab chiqish va boshqarish	F1.01.6	Ekologik strategiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish
				F1.02.6	Ekologik strategiyalarni joriy etish va nazorat qilish
		F2.6	Ekologik loyihalarni	F2.01.6	Ekologik loyihalarni boshqarish

			boshqarish va baholash	F2.02.6	Ekologik loyihalarni baholash va hisobotlar tayyorlash
6	12190005 Bosh ekolog	G1.6	Ekologik siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish	G1.01.6	Yagona ekologik siyosatni ishlab chiqish
				G1.02.6	Ekologik siyosatni joriy etish va muvofiqlashtirish
		G2.6	Ekologik faoliyatni tashkil etish va boshqarish	G2.01.6	Ekologik faoliyatni tashkil etish
				G2.02.6	Ekologik faoliyatni monitoring qilish va baholash
		G3.6	Xalqaro ekologik hamkorlikni tashkil etish	G3.01.6	Xalqaro ekologik loyihalarni tashkil etish va xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Tabiat muhofazasi bo'yicha inspektor	
Mashg'ulot nomining kodi:	32570	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Atrof-muhit muhofazasi, ekologik boshqaruv va ekologik muhandislik sohalarida 6 oygacha ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ekologik monitoring, modellashtirish va tahlil uchun zamonaviy dasturiy ta'minot va uskunalar bilan ishlash; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	Inspektor-ekolog
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5-Tabiat resurslarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish	A1.01.5-Tabiat resurslaridan foydalanish qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tabiat resurslaridan foydalanish bo'yicha qonun buzilishlarini aniqlash uchun monitoring va tekshiruvlar o'tkazish
		2. Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash uchun korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish
		3. Ekologik qonun buzilishlar bo'yicha hujjatlar tayyorlash va rasmiylashtirish
		4. Aholi va tashkilotlar o'rtasida tabiat resurslarini muhofaza qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish
		Ko'nikmalar:
		Ekologik monitoring va audit o'tkazish
		Qonun buzilishi holatlarini aniqlash va hujjatlarni rasmiylashtirishda huquqiy normalarni qo'llash
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash
		Ekologik xavf-xatarlarni baholash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish
		Jamoa bilan ishlash va manfaatdor tomonlar bilan

		muzokara olib borish Axborot texnologiyalari va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish Bilimlar: O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanish sohasidagi qonunchiligi Xalqaro ekologik konvensiyalar va tabiatni muhofaza qilish standartlari Tabiat resurslarining turlari, ularning xususiyatlari va muhofaza qilish usullari Ekologik monitoring va nazoratning ilmiy va amaliy asoslari Ekologik qonun buzilishi holatlari uchun javobgarlik va jarima turlari Tabiat resurslarini boshqarishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar
	A1.02.5-Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish	Mehnat harakatlari: 1. Jamoatchilikni tabiatni muhofaza qilish masalalarida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun tadbirlar tashkil etish 2. Tabiat resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish 3. Ekologik qonun buzilishi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha jamoatchilik tashabbuslarini muvofiqlashtirish 4. Mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish Ko'nikmalar: Jamoatchilik bilan muloqot qilish va ommaviy tadbirlarni tashkil etish Ekologik muammolar bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish Loyiha boshqaruvi va jamoatchilik tashabbuslarini muvofiqlashtirish Mediatsiya va nizolarni hal qilish usullarini qo'llash Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik xabardorlikni oshirish Jamoatchilik nazorati bo'yicha hisobotlar va takliflar tayyorlash Bilimlar: O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish va jamoatchilik nazorati bo'yicha qonunchiligi Jamoatchilik nazorati mexanizmlari va ularni amalga oshirish tartibi Ekologik muammolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari Xalqaro tajriba va jamoatchilikni jalb qilishning ilg'or

		amaliyotlari
		Tabiat resurslarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslari
		Ekologik axborotni tarqatish va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash tamoyillari
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Jamoatchilik nazorati tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirishda mustaqil qaror qabul qilish
		2. Tashkil etilgan tadbirlarning samaradorligi va qonuniyligi uchun mas’uliyat
A2.5-Atrof-muhit ifloslanishi oldini olish choralarini ishlab chiqish	A2.01.5-Ekologik xavf-xatarlarni aniqlash va baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Atrof-muhit ifloslanishining potentsial manbalarini aniqlash uchun ekologik monitoring o’tkazish
		2. Ekologik xavf-xatarlarning ta’sir darajasini baholash uchun ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish
		3. Iqlim o’zgarishi, chiqindilar va boshqa omillar natijasida yuzaga keladigan xavflarni modellashtirish
		4. Xavf-xatarlarni kamaytirish bo’yicha choralar ishlab chiqish va amalga oshirish
		Ko’nikmalar:
		Ekologik monitoring usullaridan foydalanish
		Xavf-xatarlarni baholash metodologiyalarini qo’llash
		Ma’lumotlarni statistik tahlil qilish va maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish
		Ekologik xavflarni boshqarish bo’yicha loyiha va hisobotlarni tayyorlash
		Jamoaviy ish va manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish
		Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish
		Bilimlar:
		O’zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik bo’yicha qonunchiligi
		Ekologik xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning xalqaro standartlari
		Atrof-muhit ifloslanishi turlari va ularning ta’sir mexanizmlari
		Ekologik monitoring va ma’lumotlarni tahlil qilishning ilmiy asoslari
		Iqlim o’zgarishi va antropogen omillarning atrof-muhitga ta’siri
		Ekologik xavflarni boshqarish va oldini olish usullari
	A2.02.5-Ekologik qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarini muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo’yicha choralar rejasini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish
		2. Huquqbuzarliklarni bartaraf etish jarayonida davlat organlari, korxonalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish
		3. Bartaraf etish choralarining samaradorligini

		monitoring qilish va natijalarni hujjatlashtirish
		Koʻnikmalar:
		Ekologik huquqbuzarliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish boʻyicha aniq choralar belgilash
		Huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qonunchilik talablariga rioya qilish
		Muzokara olib borish va manfaatdor tomonlar oʻrtasida kelishuvga erishish
		Ekologik monitoring va nazorat vositalaridan foydalanish
		Hisobotlar va tahliliy materiallarni tayyorlash va taqdim etish
		Bilimlar:
		Oʻzbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligi va huquqbuzarliklarga qarshi choralar boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlari
		Ekologik huquqbuzarlik turlari va ularning atrof-muhitga taʼsiri
		Xalqaro ekologik standartlar va huquqbuzarliklarni bartaraf etishning ilgʻor amaliyotlari
		Ekologik zarar va rehabilitatsiya texnologiyalari
		Monitoring va baholashning ilmiy va amaliy usullari
		Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan ekologik sohada hamkorlik qilish tartibi
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Ekologik huquqbuzarliklarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirish
2. Tashkil etilgan choralar natijalari va qonuniyligi uchun masʼuliyat		
Texnik va/yoki texnologik talab		GIS, monitoring tizimlaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor	
Mashg'ulot nomining kodi:	21331	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Atrof-muhit muhofazasi, ekologik boshqaruv va ekologik muhandislik sohalarida 6 oydan yildan 1 yilgacha ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ekologik muammolarni hal qilishda yetakchilik qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish va yangi tashabbuslarni ilgari surish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda malaka oshirish kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	6	Ekolog
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6-Ekologik nazorat to'g'risidagi qonunchilikga rioya etilishini ta'minlash	B1.01.6-Atrof-muhit muhofazasi talablariga rioya etilishini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Korxonalar va tashkilotlarning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish uchun reydlar va auditlar o'tkazish
		2. Ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash uchun hujjatlar va faoliyatni tahlil qilish
		3. Tekshiruv natijalariga asoslangan holda choralar ko'rish va ularning bajarilishini nazorat qilish
		4. Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha davlat organlari va korxonalar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi ishlarni amalga oshirish
		Ko'nikmalar:
		Ekologik audit va tekshiruv usullarini qo'llash
		Qonunchilik normalarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qo'llash
		Ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash
		Ekologik monitoring asbob-uskunalaridan foydalanish
		Muzokara olib borish va huquqbuzarlik holatlarida tegishli choralar ko'rish
		Axborot tizimlari va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish

		Bilimlar: O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi va ekologik nazorat bo'yicha qonunchiligi Xalqaro ekologik standartlar va konvensiyalar Atrof-muhit ifloslanishining turlari va ularni monitoring qilish usullari Ekologik huquqbuzarliklar uchun qonuniy javobgarlik va jarima turlari Atrof-muhit muhofazasining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha texnologik va ilmiy yondashuvlar
		Mehnat harakatlari: 1. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun korxonalar va tashkilotlarda profilaktik choralar rejasini ishlab chiqish va joriy etish 2. Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kamaytirish bo'yicha texnologik va tashkiliy tadbirlarni muvofiqlashtirish 3. Favqulodda ekologik vaziyatlarning oldini olish uchun xavf-xatarlarni monitoring qilish va baholash 4. Ekologik xavfsizlik bo'yicha treninglar va targ'ibot tadbirlarini tashkil etish Ko'nikmalar: Ekologik xavf-xatarlarni aniqlash va baholash metodologiyalarini qo'llash Ekologik xavfsizlik bo'yicha loyiha va dasturlarni boshqarish Monitoring va nazorat asbob-uskunalaridan foydalanish Qonunchilik talablariga muvofiq hujjatlar tayyorlash va hisobotlarni rasmiylashtirish Jamoaviy ish va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va choralar ko'rish Bilimlar: O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qonunchiligi Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro standartlari Atrof-muhit ifloslanishining manbalari va ularning inson salomatligi va ekotizimlarga ta'siri Ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va usullar Favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va reabilitatsiya usullari Ekologik xavfsizlik bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoringning ilmiy asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekologik xavfsizlik choralarini rejalashtirish va amalga oshirishda mustaqil qaror qabul qilish

		2. Amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligi va qonuniyligi uchun mas'uliyat
B2.6-Ekologik monitoring va tahlil o'tkazish	B2.01.6-Atrof-muhit holatini monitoring qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Atrof-muhitning asosiy ko'rsatkichlarini baholash uchun muntazam monitoring o'tkazish
		2. Ekologik ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va bazalarda saqlash
		3. Atrof-muhit holatidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun monitoring natijalarini tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash
		4. Ekologik monitoring dasturlarini ishlab chiqish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ekologik monitoring uskunalaridan foydalanish
		Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Monitoring natijalarini tahlil qilish va grafik shaklda taqdim etish
		Ekologik ma'lumotlarni boshqarish tizimlarida ishlash va ma'lumotlar bazalarini yuritish
		Jamoaviy ish va monitoring guruhlar bilan muvofiqlashtirish
		Monitoring jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit monitoringi va ekologik nazorat bo'yicha qonunchiligi
		Atrof-muhit monitoringining xalqaro standartlari va usullari
		Atrof-muhitning asosiy komponentlari va ularning ifloslanish manbalari
		Ekologik monitoringning ilmiy asoslari va ma'lumotlarni tahlil qilish usullari
		Atrof-muhit holatiga ta'sir qiluvchi antropogen va tabiiy omillar
	B2.02.6-Ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish va prognozlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Atrof-muhitga ta'sir qiluvchi potentsial xavf-xatarlarni aniqlash va tahlil qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
		2. Ekologik xavf-xatarlarning kelajakdagi oqibatlarini prognozlashtirish uchun modellashtirish va simulyatsiya usullarini qo'llash
		3. Xavf-xatarlarni boshqarish va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Ekologik xavf-xatarlarni baholash qo'llash
		Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Ekologik modellashtirish va prognozlashtirish

		texnikalarini qoʻllash
		Tahlil natijalarini aniq va tushunarli tarzda hisobot va taqdimot shaklida taqdim etish
		Jamoaviy ishlash va turli soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish
		Qaror qabul qilish jarayonida noaniqlik va xavf omillarini hisobga olish
		Bilimlar:
		Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhit monitoringi va ekologik nazorat boʻyicha qonunchiligi
		Ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish va prognozlashtirishning xalqaro usullari
		Atrof-muhitning asosiy komponentlari va ularning ifloslanish mexanizmlari
		Iqlim oʻzgarishi, antropogen faoliyat va tabiiy ofatlarning taʼsiri
		Statistik tahlil, ehtimollar nazariyasi va maʼlumotlarni modelashtirish asoslari
		Ekologik xavf-xatarlarni boshqarishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish va prognozlashtirish jarayonlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirish
		2. Tahlil natijalari va prognozlarning ishonchliligi va ularning amaliy qoʻllanilishi uchun masʼuliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		GIS, monitoring tizimlaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Ekolog	
Mashg'ulot nomining kodi:	21332	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Atrof-muhit muhofazasi, ekologik boshqaruv va ekologik muhandislik sohalarida 1 yildan 3 yilgacha ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ekologik muammolarni hal qilishda yetakchilik qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish va yangi tashabbuslarni ilgari surish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda malaka oshirish kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	6	Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.6-Ekologik loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish	D1.01.6-Ekologik loyihalarni rejalashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarning maqsad va vazifalarini aniqlash va rejalashtirish
		2. Loyiha resurslari va muddatlarini baholash va rejalashtirish
		3. Ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni tashkil etish
		4. Loyiha hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlash
		Ko'nikmalar:
		Loyiha boshqaruvi usullarini qo'llash
		Ekologik loyihalarni rejalashtirish va resurslarni taqsimlashda maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Ma'lumotlarni tahlil qilish va loyiha samaradorligini baholash
		Muzokara olib borish va manfaatdor tomonlar o'rtasida kelishuvlarni muvofiqlashtirish
		Risklarni boshqarish va ekologik loyihalarda noaniqliklarni hisobga olish
		Loyiha hujjatlarini tayyorlash va taqdimot qilish
		Bilimlar:

		O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi va ekologik loyihalar bo'yicha qonunchiligi
		Ekologik loyiha boshqaruvi va moliyalashtirishning xalqaro amaliyotlari
		Atrof-muhit muammolari va ularni hal qilishning ilmiy va texnologik usullari
		Ekologik loyihalarni baholash va monitoring qilish metodologiyalari
		Resurslarni boshqarish va loyihalarni moliyalashtirish manbalari
		Ekologik loyihalarda jamoatchilik ishtiroki va ijtimoiy-iqtisodiy omillar xususiyatlari
	D1.02.6-Ekologik dasturlarni joriy etish va nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Ekologik dasturlarni joriy etish uchun amaliy ish rejasini tuzish va bajarilishini tashkil etish
		2. Dastur ishtirokchilari o'rtasida muvofiqlashtirish ishlarini olib borish
		3. Dasturning samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring va tahlil o'tkazish
		4. Dastur natijalarini hujjatlashtirish va hisobotlarni tayyorlash hamda manfaatdor tomonlarga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Loyiha va dastur boshqaruvi usullarini qo'llash
		Ekologik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Jamoaviy ishni tashkil etish va ishtirokchilar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash
		Monitoring va nazorat jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirish
		Hisobotlar va tahliliy materiallarni tayyorlash va taqdim etish
		Muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun tezkor choralar ko'rish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi va ekologik dasturlar bo'yicha qonunchiligi
		Ekologik dasturlarni joriy etish va baholashning xalqaro standartlari
		Atrof-muhit muhofazasi sohasidagi zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar
		Ekologik monitoring va samaradorlikni baholash metodologiyalari
		Dasturlarni moliyalashtirish manbalari va resurslarni boshqarish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekologik dasturlarni joriy etish va nazorat qilish jarayonlarini mustaqil ravishda tashkil etish va boshqarish
		2. Dastur natijalarining samaradorligi, qonuniyligi va maqsadlarga muvofiqligi uchun mas'uliyat

D2.6-Ekologik tadqiqotlar va tahlillar o'tkazish	D2.01.6-Atrof-muhit holatini ilmiy tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Atrof-muhit holatini baholash uchun ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
		2. Ekologik jarayonlar va o'zgarishlarni tushunish uchun ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ma'lumotlarni tahlil qilish
		3. Atrof-muhit holatining tendensiyalarini aniqlash va kelajakdagi oqibatlarini prognozashtirish
		4. Tadqiqot natijalarini ilmiy hisobotlar, maqolalar yoki taqdimotlar shaklida umumlashtirish va nashr qilish
		Ko'nikmalar:
		Ilmiy tadqiqot metodologiyalarini qo'llash
		Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Ekologik monitoring uskunalari bilan ishlash
		Ilmiy ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va talqin qilish
		Ilmiy hujjatlar tayyorlash va nashr qilish
		Jamoaviy tadqiqotlarda ishtirok etish va xalqaro hamkorlikni tashkil qilish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi va ekologik tadqiqotlar bo'yicha qonunchiligi
		Atrof-muhitning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari
		Ekologik tahlil va tadqiqotlarning xalqaro metodologiyalari
		Iqlim o'zgarishi, antropogen ta'sir va ekotizimlarning o'zaro bog'liqligi
		Ma'lumotlarni tahlil qilishning statistik va matematik usullari
		Atrof-muhitning barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy yondashuvlar va texnologiyalar
	D2.02.6-Ekologik tendentsiyalarni prognoz qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Atrof-muhitning uzoq muddatli o'zgarishlarini prognoz qilish uchun ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish
		2. Iqlim o'zgarishi, ifloslanish va resurslardan foydalanish kabi omillarning kelajakdagi ta'sirini baholash
		3. Prognoz natijalariga asoslangan holda ekologik xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Ekologik modellashtirish va prognozashtirish usullarini qo'llash
		Statistik tahlil va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish
		Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish
